

## ELEKTRON KUTUBXONALAR VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI KIRIB KELISHI

**Rahmatullayeva O‘g‘ulxon Maxmudovna**

*Namangan viloyat tarixi va madaniyat davlat muzeyi xodimi*

**Annotatsiya:** Elektron kutubxonalar va zamonaviy texnologiyalarni kirib kelishini vazifasi Axborot texnologiyalari va elektron kutubxonalar ilmiy bilimlar va ta‘lim resurslarini keng ommaga yetkazishda asosiy vosita sifatida qaralmoqda. Elektron kutubxonalar raqamli formatdagi kitoblar, maqolalar, dissertatsiyalar, ilmiy hisobotlar va boshqa resurslarni saqlaydigan, foydalanuvchilarga taqdim etadigan onlayn platformalardir.

**Annotation:** Information technologies and electronic libraries are considered as the main means of communicating scientific knowledge and educational resources to the general public. Electronic libraries are a popular platform for users to store books, articles, dissertations, scientific reports and other resources in digital format.

Global raqamli inqilob hayotning barcha jabhalariga, xususan, ta‘lim va ilmiy tadqiqotlarga chuqur ta‘sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalari va elektron kutubxonalar ilmiy bilimlar va ta‘lim resurslarini keng ommaga yetkazishda asosiy vosita sifatida qaralmoqda. Farg‘ona vodiysi misolida zamonaviy texnologiyalar va elektron kutubxonalarning rivojlanishi, ulardan foydalanish imkoniyatlari hamda bu jarayonning ijtimoiy va madaniy jihatlari har tomonlama dolzarb jarayon hisoblanadi.

Elektron kutubxonalar raqamli formatdagi kitoblar, maqolalar, dissertatsiyalar, ilmiy hisobotlar va boshqa resurslarni saqlaydigan, foydalanuvchilarga taqdim etadigan onlayn platformalardir. An‘anaviy kutubxonalardan farqli ravishda, elektron kutubxonalar quyidagi afzalliklarga ega. Jumladan, Elektron kutubxonalar geografik chegaralarni yo‘q qiladi, bu esa dunyoning istalgan nuqtasidan axborot olish imkonini beradi. Ma‘lumotlarga, elektron kutubxonalarga tezkor kirish imkonini beradi, bu esa ilmiy tadqiqotlar uchun juda muhimdir. Resurslarni saqlash va himoya qilish ham qulay bo‘lib,

raqamli formatdagi materiallar yo‘qolish xavfini kamaytiradi va uzoq muddat saqlanishini ta’minlaydi<sup>1</sup>.

Elektron kutubxonalar ekologik jihatdan foydali bo‘lib, raqamli kitoblar va maqolalar qog‘oz sarfini kamaytirib, ekologiyani himoya qilishga xizmat qiladi. Elektron kutubxonalar bugungi kunda nafaqat ta’lim va ilm-fan, balki madaniyat, tadqiqot, biznes va boshqaruv sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda<sup>2</sup>.

Farg‘ona vodiysi — Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlarini qamrab olgan, O‘zbekistondagi aholi zich yashaydigan va ilmiy hamda madaniy markaz sifatida rivojlangan hududdir. So‘nggi yillarda vodiyning ilmiy muassasalari va ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida kitob ilm-fan, madaniyat va insonlar tafakkurining rivojlanishiga xizmat qilib kelgan. Zamonlar osha kitoblar kishilarni tarbiyalashi, ularni aqliy rivojlantirishi natijasida kitoblarning ham shakl-shamoyillari o‘zgarib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab elektron kitoblar yaratila boshlangan. Endi butun bir binoni egallab turgan yozma axborot manbalari-kitoblar, gazeta, jurnal va boshqa hujjatlar birgina kompyuter yoki kichkina telefonda jamlangan. Bugungi kunda ulardan foydalanish samarasini oshirish maqsadida to‘la matnli ma’lumotlar bazasini yaratilmoqda. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan axborot-kutubxona muassasalarida 2011-yil 23-fevraldagi “2011-2015-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot resurs xizmatini yanada sifatli takomillashtirishining chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>3</sup>, 2012-yil 20-martdagi “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>4</sup> Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi<sup>5</sup> Qonunida belgilab berilgan

<sup>1</sup> Назаров А. Кутубхоналар ва ахборот ресурслари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 86.

<sup>2</sup> Abdullayev U. Kutubxonachilikning nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – B. 78.

<sup>3</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-2268955>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-1983104>

<sup>5</sup> Назаров А. Кутубхоналар ва ахборот ресурслари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 112.

islohotlarni bajarib, elektron resurslar yaratish, mamlakatimizning yig‘ma elektron katalogini tashkil etish borasida bir qator ishlarni amalga oshirmoqda<sup>6</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi qoshidagi kutubxonalarda 2013-yildan boshlab virtual korporativ tizimini yaratishga kirishilib, “O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli asosiy kutubxona va ilmiy-tekshirish institutlari kutubxonalarining virtual korporativ tizimi” mavzusida loyiha bo‘yicha ish boshlandi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi ishlar amalga oshirish belgilandi: - ilmiy axborotlarning tizimi va turlarini, ilmiy tadqiqot institutlarida ilmiy ishlar uchun zarur jarayonlar va vositalarning tahlili va tasnifi; - bibliografik axborotlar, to‘liq matnli axborotlar uchun xalqaro standartlar talabi asosida ma’lumotlar bazasi (matnli, video, audio) strukturasi ishlab chiqish; - O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi kutubxonalarini kerakli texnik va dasturiy ta’minot bilan ta’minlash. Kutubxonachilarga elektron katalog yaratish, elektron kutubxona, kitobxonlarga zamonaviy axborot xizmati, virtual korporativ tarmoqda ishlash bo‘yicha maxsus trening kurslarini o‘tkazish; - elektron katalog va to‘liq matnli ilmiy-ta’limiy ma’lumotlar bazasini (dissertatsiyalar, avtoreferatlar, monografiyalar, ilmiy maqolalarni o‘z ichiga oladi) shakllantirish va ularni yig‘ma elektron katalogga ulab qo‘yish; - yig‘ma elektron katalogga va ilmiy ta’limiy axborot ma’lumotlar bazasiga onlayn murojaatlarni taqdim qilish, virtual korporativ tizimi orqali kutubxonalarining tezkor ma’lumotlarini olishni ta’minlash; FA tizimidagi kutubxonalar xodimlariga elektron ma’lumotlar bazasini yaratish, foydalanish, elektron katalog yaratish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish hamda samarali axborot almashish uchun va kitobxonlarga yuqori darajada xizmat ko‘rsatish uchun O‘zbekiston Respublikasi FA kutubxonalarining rivojlangan virtual korporativ tizimini O‘zbekiston Milliy kutubxonasining elektron kutubxonasiga ulashdan iborat masalalar hal etishga kirishildi<sup>7</sup>. Korporativ tarmoqda ishlash bir qator vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Bular: konsorsium ishtirokchilari

---

<sup>6</sup> Умаров А.А., Мамина И.З. Национальная библиотека Узбекистана им. Алишера Навои: история, настоящее и будущее // Библиотечной ассоциации Евразии. – 2005, №3. – Б. 75.

<sup>7</sup> Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. 2-кисм. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б. 21.

oʻrtasida axborotlarni operativ almashish, yozuvlar va materiallarning qayta takrorlanishi oldini olish, yigʻma elektron katalogni (YEK) shakllantirish. YEK tarmoqqa yagona portaldan kirish va JAR lardan samarali qidiruvni tashkil etishga imkon yaratadi<sup>8</sup>.

2014-yilda yurtimizdagi axborot-kutubxona muassasalarining mutaxassislari Koreya Respublikasining Kyonxi unversiteti markaziy kutubxonasida zamonaviy kutubxonalarning boshqarish usullarini oʻrganish masalasida malaka oshirganlar. Respublikamizdagi joriy etilgan ilk Milliy umumtaʼlim elektron kutubxona (UZNEL) loyihasi ham Koreya Respublikasining iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik jamgʻarmasi bilan birgalikda amalga oshirilgan<sup>9</sup>. Ushbu dastlabki loyiha asosida Oʻzbekiston milliy kutubxonasi va viloyatlardagi 20ta kutubxonalar oʻzaro bogʻlangan. Kelgusida loyiha asosida oʻzaro tarmoqlarga bogʻlanish Oʻzbekistonda faoliyat olib borayotgan 200 ta kutubxonani qamrab olish rejalashtirilgan. Loyiha asosida, rivojlangan telekommunikatsion tarmoqlar va elektron maʼlumotlar bazasini shakllantiruvchi dasturiy mahsulotlar konsorsium ishtirokchilari oʻrtasida yuqori tezlikdagi kanallar orqali ilmiy-taʼlimiy axborotlarni almashishga imkon yaratildi. Bugungi kunda xalqaro hamkorliklar natijasida yurtimizda yuqori malakali mutaxassislarning yetishib chiqishi hamda maʼlumot bazalarini, axborotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirilgan tizimlarini ishlab chiqilishi, axborotni tashuvchi, tarqatuvchi tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlikning mavjudligi kutubxonalar, taʼlim muassasalari, ilmiy markazlarning zarur ilmiy-taʼlimiy axborotlar bilan taʼminlanishi korporativ tarmoqni rivojlantirishning asosi boʻlib xizmat qilmoqda.

Soʻngi paytlarda mamlakatimizda foydalanuvchilarning kutubxonalardan foydalanish darajasining pasayishi kuzatilayotgan edi, lekin horijiy mamlakatlar bilan oʻrnatilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-maʼrifiy hamkorliklar bugungi kunda zamonaviy, yangi innovatsion va samarali texnologiyalarning kirib kelishi hamda horijiy mamlakatlarning ilgʻor tajribalari mamlakatimizdagi barcha axborot kutubxona muassasalarida foydalanuvchilarga zamon talablari asosidagi interfaol xizmat turlaridan foydalanish sharoitlari yaratildi. Barcha turdagi ilmiy-texnik, badiiy adabiyotlarning

---

<sup>8</sup> Raxmatullayev M.A., Ganiyeva B. I. Jahon axborot resurslari. – Toshkent: Aloqachi, 2019. – B.16.

<sup>9</sup> Evans G.E., Saponaro M.Z. Developing Library and Information Center Collections. – Englewood: Libraries Unlimited, 2012. – P. 450.

elektron shakllari yaratilib, respublikadagi axborot-kutubxona markazlarining axborot resurslari jamlab, internet tarmog'ida korporativ tarmoq yaratilgan. Bu tarmoq orqali respublikamizning barcha axborot-kutubxona markazlari bitta markaziy tarmoqqa bog'lanib kutubxonalardagi barcha adabiyotlar haqidagi ma'lumotlar jamlanib, elektron kataloglar ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Korporativ tarmoqlarning rivojlanishi yurtimiz kitobxonlariga axborot-kutubxona markazlari xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini bermoqda. Shu tarzda kutubxonalardan foydalanuvchilarning soni ortmoqda<sup>10</sup>.

Ayniqsa, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi. Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va ta'lim oluvchilar Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi<sup>11</sup>. Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagida bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «virtual o'quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo'ladi. Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, mutaxassiligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi. Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari o'quv qo'llanmalari va darsliklar talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt

---

<sup>10</sup> Abdullayev U. Kutubxonachilikning nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – B.87.

<sup>11</sup> Назаров А. Кутубхоналар ва ахборот ресурслари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 93.

orasida o‘zaro muloqotda bo‘ladilar<sup>12</sup>. Elektron masofaviy o‘qitish - eng yaxshi an‘anaviy va innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan ta‘lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta‘lim formasidir “2019 - 2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi” asosida bugungi kunda kadrlar masalasiga juda katta e‘tibor qarailib<sup>13</sup>, soha xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashda ularga uzluksiz axborot-kutubxona ta‘limini berish tizimi yaratilib zamonaviy axborot-kutubxona texnologiyalari asosida, axborot-kutubxona kadrlarini masofadan turib o‘qitish tizimini joriy qilinmoqda (masofaviy ta‘lim axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi bir-biri bilan masofa yoki vaqt oralig‘ida ajratilgan ta‘lim turi). Shuningdek, o‘qituvchi va assistentlarning xorijiy davlatlardagi yetakchi ilmiy tashkilotlarda (kutubxona fakultetlarida) stajirovka o‘tashi tashkil qilinib, axborot kutubxonachilik ishi bo‘yicha ilmiy maktablar rivojlantirilmoqda. Kutubxonachilik ishi sohasida mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganish asosida sohaga ixtisoslashgan oliy ta‘lim muassasalarida “Kutubxona-axborot faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha qabul kvotalarini oshirish, axborot-kutubxona xodimlarining malakasini oshirish, tajriba almashish bo‘yicha xalqaro loyihalarda axborot-kutubxona muassasalarining ishtirokini kengaytirish va boshqa ishlar samaradorligi oshirilmoqda. Axborot-kutubxona muassasalarida endilikda ovozli manbalardan foydalanish ham qo‘lanilmoqda. Bu axborot-kutubxona muassasalarida ovozni yozib olish va qayta eshittirish muhim ahamiyatga egadir. Turli xil ommaviy tadbirlarda – konferensiyalar, uchrashuvlar, turli xil kechalar va boshqalarda so‘zga chiqqanlarning nutqlarini yozib olib, undan keyingi kelayotgan kitobxonlarning axborot so‘roqlariga javob berish mumkin. Masalan, biror-bir fan nomzodi bilan uchrashuv o‘tkazib, uning fandagi yangiliklari shu sohaning taraqqiyoti haqidagi fikrlarini yozib olish yoki biror-bir shoir bilan uchrashuv o‘tkazib, yangi she‘rlarini yozib olish va ularni keyingi kelayotgan kitobxonlarga taqdim etish mumkin. Yozib olingan axborotlarning barchasi axborot-kutubxona fondi sifatida foydalaniladi.

---

<sup>12</sup> Назаров А. Кутубхоналар ва ахборот ресурслари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б.112.

<sup>13</sup> Qarang: <https://lex.uz/ru/docs/-4372449>

Ovoz yozuvi xalq xo‘jaligida, fan va texnikada keng qo‘llaniladi. hozirgi kunda yozib olingan ovoz mashinalar, avtomatik potok liniyalarining ishini boshqaradi, telefon orqali ma’lumotnomalar beradi. Ovoz yozuvi kosmonavtning Yer bilan suhbatlashish imkonini beradi. Turli radioeshittirishlar, tarixiy anjuman, konferensiya va kengashlardagi chiqishlar ham, odatda, magnit tasmaga yozib olinadi. Boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’limning o‘quv jarayonida ham ovoz yozib olish usulidan foydalaniladi<sup>14</sup>.

G‘arb mamlakatlarida, masalan AQShda, kutubxonalarni avtomatlashtirish 60-yillardan boshlangan, kitoblarni kompyuterga kiritish orqali elektron kolleksiyalarni yaratish 1971-yildanoq bajarib kelinmoqda<sup>15</sup>. Bizning mamlakatimizda Internet tarmog‘ining 90-yillarning oxiri- 2000-yillarning boshidan ommalashishi bugungi kunga kelib bizga elektron kutubxonalarni yaratib, mamlakatimiz aholisi va dunyo ahli bilan alishish imkonini bermoqda. Alisher Navoiy nomidagi Davlat Kutubxonasi kabi markaziy tashkilotlarning loyihalari, Internet tarmog‘ida tashabbuskor vatandoshlarimiz tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan kolleksiyalar bunga misol bo‘la oladi<sup>16</sup>. Bu loyihalarning bajarilish darajasi turlicha bo‘lib, bu albatta malakali mutaxassislarning bu jarayonlarda zamonaviy bilimlarni qo‘llagan holda ishtirok etganlari yoki etmaganlariga bog‘liq. Xalqaro standartlar va muvaffaqiyatli amaliyotlar (*best practice*) dan xabardorlik va ko‘p hollardagi vaziyatni tubdan yaxshilashi muqarrar. Muammolardan yana biri esa, an’anaviy kutubxonalardan farqli tarzda, elektron kolleksiyalarga kirish uchun barqaror axborot texnologiyasi infrastrukturasi talab qilinadi. Bu esa o‘z navbatida elektr energiyasi va telefon tarmoqlarining mavjudligi va sifatiga chambarchas bog‘liq. Shu sababdan, birinchi qarashda hamma uchun ochiq, global ko‘lamda deb bilingan elektron kutubxonalardan hamma ham foydalana olmasligi mumkin (masalan, uchinchi dunyo mamlakatlarining aholisi). Hozirda yirik ko‘lamdagi elektron kutubxonalar yaratilmoqda. Ta’lim va madaniyat dargohlaridan tashqari, tijorat kompaniyalari ham bu jarayonga kirib kelishdi.

---

<sup>14</sup> Юсупов Х. КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИ ВА ЗАМОНАВИЙ КУТУБХОНА. – Самарқанд: Сўғдиёна, 2014. – Б.72.

<sup>15</sup> Koontz C. & Gubbin B. (Eds.). *Library Trends and Development*. – London: Ashgate, 2010. – P.304.

<sup>16</sup> Buschman J. *Dismantling the Public Sphere: Situating and Sustaining Librarianship in the Age of the New Public Philosophy*. – Westport: Libraries Unlimited, 2003. – P.126.



Demak elektron kutubxonalar hozirgi zamon talabi bo'lib qoldi, hozirgi paytda barcha zamonaviy universitetlarda, maktablarda, korxonalarda bunday kutubxonalar bor.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro hamkorliklar natijasida yurtimizda yuqori malakali mutaxassislarning yetishib chiqishi hamda axborot-kutubxona muassasalari masofadan turib, kadrlarining malakasini oshirish natijasida xodimlarning sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq etish uchun kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish va xodimlarning ijodiy faolligini rivojlantirishdir. Shu bilan birgalikda xodimlarning ijodiy innovatsion faollik darajasini oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish, ilg'or xorij tajribalarini o'rgatishdir. Aytish joizki kutubxonalar foydalanuvchilari soni tobora ko'payib bormoqda. Ayniqsa, karantin paytida ham, uyda o'tirgan holatda mutolachi istalgan kitobini yoki ma'lumotini masofadan turib foydalana olishi yana bir misol bo'la oladi. Hattoki kitoblarning audio shakli ham, foydalanuvchilarga yanada qulaygarchiliklar beradi. Siz istalgan vaqda o'z ehtiyojlaringizdan kelib chiqqan holda elektron kutubxonalardan bemalol foydalana olasiz. Yana bir e'tiborni tortadigan jihati shuki, ushbu kitoblarni istalgan tilda topishingiz mumkin. Kitob mualliflarining bevosita roziligi ostida bugungi kunda Amerikada, Yevropada elektronlashtirish jarayoni jadallik bilan olib borilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Назаров А. Кутубхоналар ва ахборот ресурслари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 86.

2. Abdullayev U. Kutubxonachilikning nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – B.78

3. <https://lex.uz/ru/docs/-2268955>

4. <https://lex.uz/ru/docs/-1983104>

5. Назаров А. Кутубхоналар ва ахборот ресурслари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 112.



6.Умаров А.А., Мамина И.З. Национальная библиотека Узбекистана им. Алишера Навои: история, настоящее и будущее / / Библиотечной ассоциации Евразии. – 2005, №3. – Б. 75.

7.Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. 2-қисм. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б. 21.

8.Rahmatullayev M.A., Ganiyeva B. I. Jahon axborot resurslari. – Toshkent: Aloqachi, 2019. – B.16.

9.Evans G.E., Saponaro M.Z. Developing Library and Information Center Collections. – Englewood: Libraries Unlimited, 2012. – P. 450.

10.Abdullayev U. Kutubxonachilikning nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – B.87.

11.Назаров А. Кутубхоналар ва ахборот ресурслари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 93.

12.Юсупов Ҳ. Китобхонлик маданияти ва замонавий кутубхона. – Самарқанд: Сўғдиёна, 2014. – Б.72.

13.Koontz C. & Gubbin B. (Eds.). Library Trends and Development. – London: Ashgate, 2010. – P.304.

14.Buschman J. Dismantling the Public Sphere: Situating and Sustaining Librarianship in the Age of the New Public Philosophy. – Westport: Libraries Unlimited, 2003. – P.126.

15.Rubin R.E. Foundations of Library and Information Science. – New York: Neal-Schuman Publishers, 2016. –P.215

16.Evans G.E., Saponaro M.Z. Developing Library and Information Center Collections. – Englewood: Libraries Unlimited, 2012. – P. 450.